

«LoanId»-sonli KREDIT KARTA BO‘YICHA KREDIT LIMITINI TAQDIM ETISH TO‘G‘RISIDA SHARTNOMA

Toshkent sh.

«Date»y.

“TBC Bank” ATB nomidan Ustav asosida ish yurituvchi “DisbursementResponsiblePerson” nomidan, bundan keyin “Bank” deb yuritiladi va jismoniy shaxs “FullName” (JSHSHIR: “PINFL”, tug‘ilgan kuni: "birthdate"), bundan keyin “Qarz oluvchi” deb yuritiladi, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, ikkinchi tomondan va birgalikda “Tomonlar” deb ataladi, kredit karta bo‘yicha kredit limitini taqdim etish uchun mazkur shartnomani (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

- 1.1. **Kredit karta** - Bank tomonidan chiqarilgan bank kartasi va unga biriktirilgan bank hisobvarag‘i, Qarz oluvchining Bank tomonidan taqdim etilgan Kredit limiti doirasida operatsiyalarni amalga oshirishi uchun mo‘ljallangan (keyingi o‘rinlarda “Karta” deb yuritiladi).
- 1.2. **Kreditlash limiti** - Bank tomonidan belgilangan maksimal summa, uning doirasida Qarz oluvchiga Kartadan foydalangan holda debet operatsiyalarini amalga oshirish uchun qayta tiklanadigan kredit liniyasi mablag‘laridan (bir vaqtning o‘zida yoki qisman) foydalanish imkoniyati beriladi. Kreditlash limiti Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash (skoring) asosida hisoblanadi (keying o‘rinlarda “Limit” deb yuritiladi).
- 1.3. **Hisobot davri** – Ko‘chirma Sanasidan bo‘lgan vaqt oralig‘i, shu jumladan, keyingi Ko‘chirma Sanasidan oldingi kungacha. Karta bo‘yicha birinchi hisobot davri Karta bo‘yicha birinchi operatsiyani amalga oshirgan kundan boshlab Ko‘chirma Sanasigacha hisoblanadi.
- 1.4. **Foizsiz Davr Qarzdorligi** - Ko‘chirmaga ko‘ra Mijozning Hisobot davri oxiridagi qarzdorlik, va u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Limit bo‘yicha asosiy qarz va Tariflar va Shartnomada ko‘zda tutilgan to‘lovlar, Ko‘chirma Sanasida hisoblangan komissiyalar va foizlar.

- 1.5. **Ko'chirma** – Bankning mobil ilovasida mijozga beriladigan Kartadan ko'chirma. Ushbu Ko'chirma har bir Hisobot davri uchun ma'lumotlarni, shuningdek, asosiy qarz va to'lanishi kerak bo'lgan hisoblangan foizlar bo'yicha minimal to'lov summasi va muddatini o'z ichiga oladi.
- 1.6. **POS-operatsiyalar (Xaridlar)** – Karta tariflariga muvofiq jismoniy POS yoki virtual ePOS terminallar orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lov, mobil ilovalar orqali tovarlar va/yoki xizmatlar uchun to'lovlar va/yoki boshqa operatsiyalar.
- 1.7. **Cash-operatsiyalar (Naqd pullarni yechib olish)** – Bankomatlar orqali naqd pul yechib olish va/yoki Karta tariflariga muvofiq naqd pul yechib olishga tenglashtirilgan boshqa operatsiyalar.
- 1.8. **“Ish kunlari”** - Shartnoma matnida Bankning operatsion ish kunlari tushuniladi.

2. SHARTNOMA MAVZUSI

- 2.1. Shartnoma shartlariga ko'ra Bank skoring tizimi tomonidan tasdiqlangan Qarz oluvchining kredit arizasi asosida Kredit kartasini chiqaradi va Karta bo'yicha Kredit liniyasi limitini taqdim etadi va Qarz oluvchi ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq foydalanilgan summani Bankka to'liq qaytarish va Limitdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lash majburiyatini oladi.
- 2.2. Karta operatsiyalari bo'yicha tariflar “TBC Bank” ATBning kredit karta uchun tariflarida (matnda- “Tariflar”) belgilanadi, ular Bank veb-saytining “Hujjatlar” bo'limida joylashtirilgan - <https://tbcbank.uz/ru/documents>).
- 2.3. Mazkur Shartnoma Qarz oluvchi TBC UZ mobil ilovasida kreditga ariza berish jarayonida Shartnomani qabul qilgandan keyin tuzilgan hisoblanadi.

3. KREDITLASHNING UMUMIY SHARTLARI

- 3.1. **Kreditlash limiti:** 0 dan “maxlimit” (“maxlimit_in_words”) so'mgacha.
- 3.2. **Limit muddati:** “Date” yilgacha.
- 3.3. **Limit valyutasi:** milliy valyuta – So'm.
- 3.4. **Foiz stavkasi:**
 - 3.4.1. **POS-operatsiyalar (xaridlar):** «pos_rate»%;
 - 3.4.2. **Cash-operatsiyalar (Naqd pullarni yechib olish):** «cash_rate»%;
 - 3.4.3. **Kechiktirilgan to'lovlar uchun oshirilgan foizlar:** Tariflarga muvofiq.
- 3.5. **Minimal to'lov summasi (Minimal to'lov):** asosiy qarz miqdoridan «minimal_payment»% va hisoblangan foizlar (Tariflarga muvofiq).

- 3.6. **Ko'chirma Sanasi:** Foizsiz davrdagi Qarzdorlikni va Minimal to'lov summasini hisoblash sanasi. Bank TBC UZ ilovasi yoki SMS orqali Kartadan Ko'chirma Sanasi haqida Qarz oluvchini xabardor qiladi.
- 3.7. **To'lov sanasi:** Ko'chirma sanasidan keyin 24 (yigirma to'rtinchi) kun.
- 3.8. **Foizsiz (Imtiyozli) davr:** Bank kredit mablag'laridan karta orqali xaridlarni amalga oshirish uchun foydalanganlik uchun foizsiz muddatning Qarzdorlik summasini So'ndirish sanasidan oldin to'liq hajmda to'lash sharti bilan oxirgi Hisobot davrida foizlar undirilmaydigan davr.

4. KREDIT LINIYA LIMITI VA KARTANI RASMIYLASHTIRISH

- 4.1. Limitni olish uchun Qarz oluvchi TBC UZ ilovasida kredit arizasini rasmiylashtiradi. Bankdan kredit olish uchun potentsial qarz oluvchiga qo'yiladigan minimal talablarni Bankning veb-saytida tanishish mumkin.
- 4.2. Qarz oluvchining skoringi o'tkazilgandan so'ng, Bank tasdiqlangan Limit miqdori bilan individual kreditlash shartlari bilan Shartnoma taqdim etadi. Qarz oluvchi Shartnoma bilan tanishishi va mobil ilovada Shartnomaga roziligi (qabul qilishi) kerak.
- 4.3. Shartnomani qabul qilgandan so'ng, Bank Qarz oluvchi nomiga Kartani chiqaradi. Karta 3 -10 ish kunigacha ishlab chiqariladi. Kartani yetkazib berishning aniq muddati Qarz oluvchiga Bankning aloqa kanallari orqali ma'lum qilinadi va yetkazib berish manziliga qarab farq qilishi mumkin.
- 4.4. Kartani olgandan so'ng, Kartani faollashtirish kerak. Karta TBC UZ mobil ilovasi orqali faollashtiriladi.
- 4.5. Kartani faollashtirgandan so'ng, Karta faollashtirilgan kundan boshlab bir ish kunidan kechiktirmagan holda mablag'ni sarflash uchun Limitdan foydalanish mumkin.
- 4.6. Bank kartalaridan foydalanishning umumiy shartlari "TBC Bank" ATBning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Bosh Shartlari (keyingi o'rinlarda - Bosh shartlar) bilan tartibga solinadi (<https://tbcbank.uz/ru/documents>).

5. XARAJAT QILISH, HISOB-KITOB VA SO'NDIRISH

- 5.1. Qarz oluvchi kartadan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshirishi va naqd pul yechib olishi mumkin. Limit mablag'lari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday xarajatlar uchun sarflanishi mumkin.
- 5.2. Kredit limiti sarflangandan so'ng, mavjud Limit sarflangan qismga kamayadi va to'langan Asosiy qarz miqdoriga yangilanadi. Bank Limitning foydalanilgan qismi

uchun foizlarni Kartaga xizmat ko'rsatuvchi to'lov tizimidan tranzaksiyalar tasdiqlanganidan (kliring natijalaridan) keyingi kundan boshlab hisoblaydi.

- 5.3. Limit mablag'lari komissiyalarni to'lash, valyuta ayirboshlashdagi farqlarni qoplash, tarif xizmatlarini to'lash, uchinchi tomon xizmatlari bo'yicha rekurrent/avtomatik yechib olish va/yoki Qarz oluvchi bilan kelishilgan boshqa xarajatlarni qoplash uchun yetarli bo'lmasa, Bank ushbu xarajatlarni to'lash uchun Qarz oluvchiga texnik overdraft taqdim etishi mumkin. Texnik overdraft asosiy qarz bilan birga umumlashtiriladi va to'lanadi.
- 5.4. Bank har oyda va Ko'chirma Sanasida (3.6-band) Qarz oluvchiga amalga oshirilgan operatsiyalar summasi bilan va o'tgan Hisobot davrida (1.3-band) yuzaga kelgan Bank oldidagi qarzдорlik to'g'risida Ko'chirma yuboradi.
- 5.5. Qarzдорlik har oy So'ndirish sanasining operatsion kuni tugashiga qadar (3.7-band), Minimal to'lov summasi (3.5-band) yoki Foizsiz davr qarzдорligi summasi miqdorida to'lovlar bilan to'lanishi kerak.
- 5.6. Ko'chirma sanasidan boshlab So'ndirish sanasigacha Qarz oluvchiga Foizsiz davr taqdim etiladi (3.8-band). Birinchi kun soat 00:01 dan oxirgi kuni 19:00 gacha Qarz oluvchi hisoblangan foizlarni to'lamasdan, 5.7-bandda ko'rsatilgan hollar bundan mustasno, Ko'chirma bo'yicha barcha qarzдорliklarni muddatidan oldin mustaqil ravishda so'ndirishi mumkin.
- 5.7. Agar:
 - 5.7.1. Hisobot davrida Qarz oluvchi Cash-operatsiyalar amalga oshirgan bo'lsa (1.7-band), bunday Cash-operatsiyalar uchun hisoblangan foizlar to'liq to'lanishi kerak.
 - 5.7.2. Qarz oluvchi Hisobot davrida POS-operatsiyalari (1.6) va Cash-operatsiyalarini amalga oshirgan bo'lsa, Qarz oluvchi POS-operatsiyalari foizsiz so'ndirilishi uchun Hisobot davrining barcha qarzдорliklarini to'lashi kerak. Agar Hisobot davridagi POS-operatsiyalar va Cash-operatsiyalar bo'yicha barcha qarzдорliklar Foizsiz davr mobaynida to'lanmagan bo'lsa, Hisobot davri uchun hisoblangan barcha foizlar to'lanishi kerak.
 - 5.7.3. Oxirgi Hisobot davrida Qarz oluvchi Minimal to'lovni kechiktirsa.
- 5.8. To'lov sanasida Qarz oluvchining qarzдорlik miqdoridagi mablag'lari hisobvaraqdan avtomat ravishda yechib olinadi. Agar Kartada mablag' yetarli bo'lmasa, mablag'lar Bankdagi boshqa hisobvaraqlardan yoki TBC UZ ilovasiga birlashtirilgan kartalardan yechib olinadi.
- 5.9. Qarzдорlikni to'lashga qaratilgan to'lov pul mablag'lari Bankka kelib tushgandan keyin ya'ni to'lov tizimi yoki to'lov amalga oshirilgan to'lov kompaniyasidan to'lovni

amalga oshirish bo'yicha tranzaksiya (kliringni qabul qilish va qayta ishlash) tasdiqlangandan so'ng muvaffaqiyatli amalga oshirilgan hisoblanadi.

5.10. Qarzdorlikni so'ndirish uchun to'lovlar quyidagi bosqichda amalga oshiriladi:

- 5.10.1. Mutanosib ravishda muddati o'tgan asosiy qarzdorlik, muddati o'tgan foiz to'lovlari va muddati o'tgan asosiy qarz uchun foizlar;
- 5.10.2. Hisobot davri uchun hisoblangan foizlar;
- 5.10.3. Asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- 5.10.4. Qarzdorlikni so'ndirish bilan bog'liq boshqa bank xarajatlari.

Shu bilan birga, agar mijozning POS-operatsiyalar va Cash-operatsiyalar bo'yicha foizli qarzdorligi va asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lsa, birinchi navbatda POS-operatsiyalari bo'yicha qarzdorlik so'ndiriladi.

- 5.11. Agar To'lov sanasida Qarz oluvchining hisobvaraqlarida mablag' bo'lmasa va/yoki to'lov yetarli miqdorda amalga oshirilmagan bo'lsa, Qarz oluvchi muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga keladi va Karta Limiti bloklanadi. Bunday holda, Oshirilgan foizlarning barcha summasi muddati o'tgan qarzdorlikka qo'shiladi (3.4.3-band).
- 5.12. Limitni blokdan chiqarish uchun Qarz oluvchi Bank oldidagi barcha yuzaga kelgan va kechiktirilgan qarzdorliklarni va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi kerak. Agar Qarz oluvchining kredit layoqati yomonlashganligi sababli Bank 6.2-, 7.1.2- va 9.1-bandlarga muvofiq o'z huquqlaridan foydalanmasa, Qarzdorliklarni to'lagandan so'ng Qarz oluvchi Limitning barcha mablag'laridan umumiy tartibda foydalanishi mumkin.
- 5.13. Agar Limit muddati tugashidan 20 (yigirma) oy oldin Qarz oluvchining qaytarilmagan foydalanilgan limiti bo'lsa, u holda Limit yopiladi va mavjud qarzdorlik summasi har oy qarzdorlik summasidan yigirmadan bir qismi miqdorida to'lanishi kerak.

6. LIMIT VA KARTA MUDDATI

- 6.1. Limit "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga muvofiq Qarz oluvchiga pensiya yoshiga yetgunga qadar muddatga beriladi. Bundan tashqari, agar erkaklar uchun 58 (ellik sakkiz) yoshga va ayollar uchun 53 (ellik uch) yoshga to'lgan kuni Qarz oluvchida so'ndirilmagan Limiti bo'lmasa, foydalanilmagan Limit yopiladi va Shartnoma o'z kuchini yo'qotadi.
- 6.2. Limit Bank tomonidan Qarz oluvchining to'lov qobiliyati va to'lov intizomiga qarab bir tomonlama ravishda kamaytirish uchun o'zgartirilishi mumkin. Kamaytirilgan Limit miqdorini mobil ilovada ko'rish mumkin. Agar Qarz oluvchi o'zgartirilgan Limitga rozi bo'lmasa, Qarz oluvchi Karta va Limitdan foydalanishni to'xtatishi va Shartnomani bekor qilish uchun Bank bilan bog'lanishi kerak. Limitdan foydalanishni davom

ettirish yoki Kartadan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish orqali Qarz oluvchi o'zgartirilgan Limitni qabul qiladi.

- 6.3. Karta 5 (besh) yil muddatga taqdim etiladi. Karta kartada ko'rsatilgan oy va yilning oxirgi kunigacha amal qiladi. Agar Kartaning amal qilish muddati tugagandan so'ng Qarz oluvchi Shartnomani bekor qilganligini e'lon qilmasa, Bank o'z xohishiga ko'ra Kartani yangi muddatga qayta chiqarishi mumkin.

7. TOMONLAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

7.1. Bank huquqlari:

- 7.1.1. Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini o'rganish va majburiyatlarini bajarish ustidan nazorat qilish.
- 7.1.2. Shartnomani tuzishdan oldin yoki amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda Limitni taqdim etish, blokdan chiqarish va/yoki o'z xohishingizga ko'ra o'zgartirishni rad etish.
- 7.1.3. Qarz oluvchining Bank va/yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa banklaridagi barcha hisobvaraqlari va omonatlaridan muddati o'tgan qarzdorlikni akseptsiz hisobdan chiqarish.
- 7.1.4. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, shuningdek, Bank tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida Karta, Limitni bloklash, Karta bo'yicha operatsiyalarni yoki muddati o'tgan qarzdorlik mavjud hollarda uni qayta chiqarishni to'xtatib turish.
- 7.1.5. Kredit arizasida ko'rsatilgan bog'lanish uchun shaxslar, shuningdek, Bank ma'lumotlariga ko'ra Qarz oluvchiga muddati o'tgan pul majburiyatlarini bajarishda yordam bera oladigan boshqa shaxslar bilan qarzdorlikni so'ndirish bo'yicha qo'ng'iroqlar va suhbatlar o'tkazish.
- 7.1.6. Qarz oluvchining kredit byurolari va davlat kredit ma'lumotlari reyestrlari oldidagi shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishi to'g'risida ma'lumot taqdim etish.
- 7.1.7. Mablag'larni sarflashning maqsadi va rejalari to'g'risida ma'lumot so'rash, Qarz oluvchi haqida shaxsiy, identifikatsiya va boshqa ma'lumotlarni aniqlashtirish.
- 7.1.8. Karta bo'yicha mumkin bo'lgan operatsiyalar to'plamini o'zgartirish, Limit bo'yicha ruxsat etilgan operatsiyalarni o'zgartirish va POS- va Cash-operatsiyalar ro'yxatini to'ldirish yoki o'zgartirish.

- 7.1.9. “TBC Bank” ATBning mahsulot va xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Bosh Shartlarida belgilangan tartibda Shartnoma shartlarini va Karta uchun tariflarni bir tomonlama o'zgartirish.

7.2. Bank majburiyatlari:

- 7.2.1. Limit, Karta va Karta bo'yicha bank xizmatlarining ishlashini ta'minlash.
- 7.2.2. Qarzdorlikni so'ndirish uchun olingan mablag'larni yo'naltirish.
- 7.2.3. Qarz oluvchiga Limit, Karta va Shartnoma shartlaridan foydalanish bo'yicha maslahat berish.

7.3. Qarz oluvchining huquqlari:

- 7.3.1. Limit mablag'laridan foydalanish va o'z xohishiga ko'ra Karta bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish.
- 7.3.2. Qarzdorlikni muddatidan oldin, to'liq yoki qisman, muddatidan oldin to'lov komissiyalarini to'lamasdan so'ndirish.
- 7.3.3. Mavjud qarzdorlik haqida ma'lumot olish, Limitni sarflash va Kartadan foydalanish bo'yicha maslahat olish uchun Bank bilan bog'lanish.
- 7.3.4. Limitni oshirish, kartani qayta chiqarish va texnik muammolar haqida xabar berish uchun Bank bilan bog'lanish.
- 7.3.5. Limitni olishdan oldin istalgan vaqtda uni rad etish.

7.4. Qarz oluvchi majburiyatlari:

- 7.4.1. Qarzdorlikni o'z vaqtida so'ndirish va Karta, Limit va boshqa bank xizmatlariga xizmat ko'rsatish uchun komissiya/tarif xarajatlarini to'lash.
- 7.4.2. Bank talabiga binoan mulkiy holati va mablag'larni sarflash maqsadlari to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish.
- 7.4.3. 5 (besh) ish kuni ichida bog'lanish uchun ma'lumotlar, pasport ma'lumotlarga kiritilgan o'zgarishlar va yashash manzili o'zgarganligi haqida Bankni xabardor qilish.
- 7.4.4. PIN kodlarni, SMS orqali berilgan kirish kodlarini, bir martalik parollarni yoki mobil qurilmaga kirishni uchinchi shaxslarga bermaslik.
- 7.4.5. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda Bank talabiga ko'ra Kartani bekor qilingan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida Bankka qaytarish.
- 7.4.6. Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarni Bankning roziligsiz uchinchi shaxslarga bermaslik.

8. JAVOBGARLIK

- 8.1. Qarz oluvchi Bank oldidagi qarzdorlikni o'z vaqtida va to'liq to'lash uchun javobgardir.
- 8.2. Qarz oluvchi quyidagilarga ham javobgardir:
 - 8.2.1. Kartadan foydalangan holda amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va to'g'ri bajarilishi uchun;
 - 8.2.2. Karta xavfsizligi va komprometatsiyadan himoya qilish uchun;
 - 8.2.3. Karta, Limit va Qarz oluvchining akkauntiga kirishga ruxsat beruvchi ma'lumotlarning maxfiyligi uchun.
 - 8.2.4. Qarz oluvchining akkauntidan yoki bank aloqa kanallari orqali Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlaridan foydalangan holda to'lov topshiriqlari, rozilik va avtorizatsiya uchun.
- 8.3. Bank va Qarz oluvchining ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qo'llaniladi.
- 8.4. Bank Qarz oluvchi oldida ushbu Shartnomani tuzish, Karta va/yoki Limitdan foydalanish yoki Qarz oluvchining o'z majburiyatlarini bajarmaganligi bilan bog'liq bo'lgan zararlar/xarajatlar uchun javobgar emas.

9. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

- 9.1. Bank bir tomonlama tartibda Qarz oluvchini elektron aloqa kanallari yoki mobil ilova orqali bekor qilish kunida xabardor qilish orqali Limitni bloklash va Shartnomani bekor qilish huquqiga ega, agar:
 - 9.1.1. Qarz oluvchi Karta chiqarilgandan keyin 6 (olti) oy ichida uni faollashtirmagan taqdirda;
 - 9.1.2. Qarz oluvchi kechikish sodir bo'lganidan keyin 1 ish kunidan ko'proq vaqt davomida qarzdorlikni to'lashdan va/yoki Bankning boshqa talablarini bajarishdan qochsa;
 - 9.1.3. Qarz oluvchi Bank bilan aloqa o'rnatishdan bosh tortsa va talabnoma yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Bank tomonidan so'ralgan hujjatlarni/ma'lumotlarni taqdim etmasa;
 - 9.1.4. Qarz oluvchiga nisbatan tergov harakatlari olib borilayotgan bo'lsa/jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa/ijro ishi yuritilayotgan bo'lsa/Qarz oluvchini bankrot deb topish to'g'risida da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa/Qarz oluvchiga taqdim etilgan Limitning yarmidan ortiq miqdorda kreditor talablari mavjud bo'lsa;

- 9.1.5. Qarz oluvchi Bank yoki uning xodimlariga nisbatan noqonuniy/firibgarlik/korrupsion/haqoratli xatti-harakatlarni sodir etgan bo'lsa;
 - 9.1.6. Qarz oluvchiga nisbatan xalqaro yoki mahalliy sanksiyalar qabul qilingan bo'lsa;
 - 9.1.7. Qarz oluvchi o'zi va moliyaviy ahvoli haqida noto'g'ri/yolg'on ma'lumot bergan bo'lsa.
 - 9.1.8. Shartnoma imzolangan va Limit tasdiqlangan kunidan so'ng 30 (o'ttiz) kun ichida Qarz oluvchi Karta buyurtmasini bermasa.
- 9.2. Agar Shartnoma bekor qilinganligi to'g'risida xabar berilgan kungacha Qarz oluvchining Bank oldidagi to'lanmagan qarzдорligi mavjud bo'lmasa, Qarz oluvchi Shartnomani bekor qilish sanasidan 30 (o'ttiz) kun oldin Bankni xabardor qilib, Shartnomani bekor qilishga haqli (Ko'chirma kunigacha tuzilgan so'nggi Ko'chirmada Asosiy qarz va foizlar bo'yicha qarzдорlik mavjud bo'lmasa).

10. NIZOLARNI HAL QILISH

- 10.1. Mazkur Shartnomadan yoki u bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni Bank va Qarz oluvchi ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilishga harakat qiladi. Da'vo qilish tartibi majburiydir. Da'voni ko'rib chiqish muddati - 15 (o'n besh) kalendar kun.
- 10.2. Agar nizo tinch yo'l bilan hal etilmasa, nizo bankning ixtiyoriga ko'ra yakuniy hal qilinadi:
- 10.2.1. Bank davlat ro'yxatidan o'tkazilgan manzil yoki Qarz oluvchining yashash joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining tegishli fuqarolik sudida;
 - 10.2.2. qonun hujjatlarida belgilangan tartibda notarial ijro xatini olish orqali. Notarial ijro xatini olish orqali qarzдорlikni undirishda Qarz oluvchi notarial ijro xatining haqiqiyiligini shubhasiz tarzda tan oladi.

11. BOSHQA SHARTLAR

- 11.1. Shartnoma Bosh Shartlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Karta, to'lov va kredit mahsulotlarini taqdim etishning umumiy shartlari hamda Bank va Qarz oluvchi o'rtasidagi aloqa masalalari Bosh Shartlar bilan tartibga solinadi.
- 11.2. Mazkur Shartnoma va Bosh Shartlarda nazarda tutilmagan holatlarda Bank va Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.
- 11.3. Qarz oluvchi ushbu bilan Bankdan Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni kredit byurolaridan va boshqa manbalardan/yetkazib beruvchilardan so'rashga o'z roziligini bildiradi;

- 11.4. Mazkur Shartnomaning 2.3-bandiga muvofiq qabul qilingan vaqtdan boshlab Shartnoma tuzilgan hisoblanadi va ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar yoki Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.